

CHINGIZ AYTMATOVNING “QIYOMAT” ROMANIDA INSON UMRINING FALSAFIY-BADIIY TALQINI

Jalolova Gulbahor

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17829086>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani tahlil qilinib, inson umrining falsafiy-badiiy talqini, zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy inqiroz, tabiat va imon masalalari, ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi abadiy ziddiyatlar yoritiladi. Roman syujeti va obrazlari, paralel zamon-makon qatlamlari, ramziy va mifologik elementlar orqali insoniyatning umumiy fojiasi va axloqiy mas’uliyati ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: Chingiz Aytmatov, Qiyomat, falsafiy-badiiy talqin, inson umrining ma’nosi, ma’naviy inqiroz, ezgulik va yovuzlik, tabiat va jamiyat, ramziy obrazlar, mifologik qatlam, zamon-makon paralelligi.

Аннотация: В статье анализируется роман Чингиза Айтматова «Кунде» («Qiyomat»), раскрываются философско-художественные аспекты человеческой жизни, духовный кризис современного общества, вопросы природы и веры, вечное противостояние добра и зла. Через сюжет, образы, параллельные временные и пространственные слои, символику и мифологические элементы показана общая трагедия человечества и нравственная ответственность.

Ключевые слова: Чингиз Айтматов, «Кунде», философско-художественное осмысление, смысл жизни человека, духовный кризис, добро и зло, природа и общество, символические образы, мифологические слои, параллельное время и пространство.

Annotation: This article analyzes Chingiz Aitmatov’s novel “Qiyomat” (“Kunda”), highlighting the philosophical and artistic interpretation of human life, the moral crisis of modern society, issues of nature and faith, and the eternal conflict between good and evil. Through the plot, characters, parallel time-space layers, symbolic and mythological elements, the universal tragedy of humanity and ethical responsibility are revealed.

Keywords: Chingiz Aitmatov, Qiyomat, philosophical-artistic interpretation, meaning of human life, moral crisis, good and evil, nature and society, symbolic characters, mythological layers, parallel time-space.

Jahon va milliy adabiyot tajribasi shuni ko’rsatadiki, kitobxon qalbida chuqur iz qoldirgan, jamiyat vijdonining badiiy ifodasiga aylangan asarlar juda ko’p. Bunday durdona asarlar orqali adiblar hayotning haqiqiy manzarasini, uning ichki mohiyati va ruhini yuksak mahorat bilan tasvirlaydilar. Natijada ular nafaqat badiiy haqiqatni yaratadilar, balki jamiyat va kitobxon oldidagi ma’naviy burchlarini halol bajo keltiradilar. “Adabiyotning o’zi ham hayotning bir bo’lagi sifatida inson taqdiri, ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari, quvonch va iztiroblarining badiiy timsolini yaratadi. Zero, adabiyot bag’rida ham o’ziga xos yashash jarayoni, inson umriga monand taqdirlar va kechinmalar mavjud”¹.

Chingiz Aytmatov — so’nggi yuz yillik jahon adabiy jarayonida o’zining badiiy-falsafiy izlanishlari, milliy adabiy an’analarni umuminsoniy muammolar bilan uyg’unlashtira olgan ijodkori sifatida alohida o’rin tutadi. Qardosh qirg’iz adabiyotining yetakchi namoyandasi sifatida tan olingan adibning “Qiyomat” (“Kunda”) romani ham yozuvchining ijodiy

¹ Нодира Афоқова. Ботиндаги илоҳий ҳакам. Озод Ватан саодати. Т.: “Адиб”, 2013. —Б. 287

evolyutsiyasida muhim bosqich bo'lib, unda XX asrning oxirlarida insoniyat oldida turgan murakkab axloqiy, ma'naviy va ekologik muammolar teran badiiy talqin etilgan.

Asar ilk bor 1986-yilda rus tilida chop etilgan bo'lib, bu davr Aytmatov ijodining falsafiy teranlik va ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyigan pallasiga to'g'ri keladi. Ruscha matnning e'lon qilinishi oradan ko'p o'tmay, roman qirg'iz tiliga tarjima qilindi. Bu esa asarning nafaqat Sovet Ittifoqi hududida, balki xalqaro adabiy maydonda ham tezkor e'tibor qozonganidan dalolat beradi. Tarjima jarayoni roman mazmunidagi milliy va umuminsoniy qatlamlarni asl holicha yetkazishga alohida e'tibor bilan amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir.

“Qiyomat” romanida insonning tabiat bilan munosabati, axloqiy tanlovlar, ma'naviy inqiroz, an'anaviy qadriyatlarning yemirilishi kabi dolzarb masalalar badiiy-falsafiy mushohada orqali yoritiladi. Asar qahramonlari obrazida zamonaviy jamiyatning murakkab ichki kechinmalari, adibga xos ramziylik va mifologik qatlamlar uyg'unlashgan. Shuningdek, romanning rus va qirg'iz tillaridagi talqinlari o'rtasidagi ma'lum uslubiy farqlar, tarjimaning semantik xususiyatlari ham tadqiqotchilar tomonidan alohida o'rganiladi.

Shu tariqa, “Qiyomat” (“Kunda”) romani Aytmatov ijodining yuksak badiiy bosqichi sifatida, XX asrning ijtimoiy-ma'naviy muammolarini yorqin aks ettirgan universal asar sifatida e'tirof etiladi hamda uning dastlab rus, keyinchalik qirg'iz tilida nashr etilishi adib merosining keng o'quvchilar qatlamiga yetib borishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida insoniyatning ma'naviy tanazzuli, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy ziddiyat global miqyosdagi muammolar bilan uyg'unlashtirilgan holda badiiy talqin etiladi. Asarda ezgulik, oliyjanoblik, adolat, to'g'rilik kabi qadriyatlarning izdan chiqishi yoki Qiyomat holatiga yaqinlashuvi tasvirlanar ekan, bu jarayon tabiatga munosabat, jamiyatning axloqiy holati, insonning ruhiy-ruhiyati hamda iymon masalalarini yoritish orqali ochib beriladi. Aytmatov ana shu murakkab tushunchalarni falsafiy mushohada, ramziy obrazlar va voqeyiy qatlamlarning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida tahlil qiladi.

“Qiyomat” romanida ezgulik va insoniylik, yaxshilik va to'g'rilik, adolat va haqgo'ylikning qiyomatga xos darajada izdan chiqishi tabiat, jamiyat, inson va iymon muammolari orqali ochib beriladi. Tabiatning poymol etilishi oqibatida yuzaga kelayotgan vayronagarchiliklar, qirg'in-barotlar va uni amalga oshirayotgan ijtimoiy kuchlar hamda razil insonlar tasviri asarda muhim o'rin egallaydi.

Akbara va Toshchaynarning qismati bunga yorqin misoldir: tog'dagi noyob konni o'zlashtirish maqsadida ularning uyasi joylashgan qamishzorga o't qo'yilishi oqibatida besh bo'ri bolasi nobud bo'ladi. Bo'rilar tog' sari qochgach, bu yerda dunyoga kelgan to'rt bo'ri bolasining esa insoniy fazilatlardan butunlay mahrum Bozorboy tomonidan o'g'irlab, aroq olish uchun sotib yuborilishi tabiat fojiasining ko'lami qanchalik dahshatli ekanini yanada ochib beradi.

Asardagi eng murakkab obrazlardan biri Avdiy Kallistratovdir. U Xudoga va dinga chin dildan ishonadi. Ammo uning fikricha, insoniyat tafakkurida asrlar davomida shakllanib, muzlab qolgan Xudo haqidagi tasavvurlar eskirgan; shu bois odamzod ruhiyatiga mos, zamonaviy talablarga javob beradigan yangi ma'naviy konsepsiyani yaratish kerak. Avdiy o'z fikridan, o'zi ta'kidlaganidek, o'tda kuydirlsalar ham qaytmaydi.

“Asrlar davomida qotib qolgan aqidalarni o'zgartirish, aqidabozlikdan xalos bo'lish, inson ruhiga Xudoni anglashda hurlik berish, Xudoni inson borlig'ining eng oliy zuhroti sifatida tan olish” kabi qarashlar Avdiyning diniy-falsafiy nuqtayi nazarining mohiyatini tashkil etadi. U

murakkab, ko'p qirrali obraz bo'lib, Aytmatov uni ilohiy, falsafiy va insonparvar g'oyalar uyg'unligida yuksak mahorat bilan tasvirlay olgan. Shu bois yozuvchi chuqur bilim, teran fikr va mustahkam mantiqqa ega ijodkor sifatida namoyon bo'ladi.

Asarda inson tabiati birlamchi ilmiy ob'ekt emas, balki ruhiy-axloqiy mas'uliyat va ma'naviy izlanishlar maydoni sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi har qanday ilmiy-texnik taraqqiyot insoniylik, axloqiy tamoyillar va ruhiy poklik kabi qadriyatlarni almashtira olmasligini anglatadi. Insonning "umri nima" degan savoli esa hayotiy voqealarni o'lchashdagi eng murakkab falsafiy kategoriyalardan biri ekanini bildiradi:

"Odamning umri nima?" degan savolga javob topib berish qiyin... hatto eng zamonaviy kompyuter sistemalari ham eng oddiy inson tabiatining umumiy chizig'ini ajratib berolmaydi."

Mazkur fikr Aytmatovning antropologik qarashlarida insonning biologik, psixologik va ijtimoiy tabiatining yagonaligi va shu bilan birga nihoyatda murakkabligini ta'kidlaydi. Yozuvchi taraqqiyotning shiddatli rivojlanayotgan zamonida ham inson ruhiyatining hech bir sun'iy tizim tomonidan to'liq tahlil qilib bo'lmashligini ilgari suradi. Bu g'oya XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan humanistik falsafa, ekzistensializm yo'nalishlarida ham muhim o'rin tutadi.

"Odam nega tug'iladi-yu, nega o'ladi... hayot o'limdan yuqori — dunyoda hayotdan ko'ra yuqori o'lchov yo'q."

Ushbu fikrda axloqiy imperativ ham mujassam: tirik jonni o'ldirmaslik, hayotni asrash — bu nafaqat biologik, balki ma'naviy vazifadir. Shu bilan birga, "yov kelganda himoyaga o'tlanish" motivi insonning jamiyat oldidagi javobgarligini eslatadi. Roman kontekstida bu nafaqat jismoniy yovdan himoya, balki ruhiy, ma'naviy tahdidlarga qarshi uyg'oqlik ramzidir.

Roman poetikasida markaziy kontsept — hayotning muqaddasligi va insonning mavjudlik oldidagi mas'uliyati bilan bog'liq. Aytmatov hayotni o'lim bilan solishtirish orqali mavjudlikning eng oliy mezon sifatida yashash jarayonining o'zini talqin etadi. Bu fikr Sharq falsafasiga xos "tiriklik nur"i konsepsiyasiga hamohang bo'lib, insonning borlig'i va o'lim haqiqatining doimiy yonma-yonligiga urg'u beradi.

Aytmatov ilmiy-texnik davrning murakkab axloqiy muammolarini yoritarkan, insonning oliy qadri — hayotning o'zi ekanini ta'kidlaydi. Inson tabiatining tahlil qilib bo'lmash murakkabligi va hayotning o'limdan ustunligi haqidagi fikrlar roman ideyasini yanada chuqurroq anglashga yo'l ochadi.

Roman kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyati — bir-biriga bevosita ulanmaydigan, ammo mohiyatan bir-birini to'ldiruvchi ikki turli zamon va makondagi voqealarning parallel olib borilishidir. Bir tomondan, zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy inqiroz, ekologik fojia, ideologik bosim va insonning o'z qadriyatlari bilan ziddiyatga tushishi tasvirlansa, ikkinchi tomondan, qadimiy mifologik qatlam — Mankurt afsonasiga aloqador voqealar orqali milliy xotira va tarixiy o'zlikning yemirilishi namoyon qilinadi. Aytmatov voqealar o'rtasidagi bu ikki qutbni to'qnash tirib, jamiyatda ro'y berayotgan adolatsizlik, insonning ruhiy bo'shashuvi, tabiatga beparvolik va iymon zaiflashuvining asl mohiyatini fosh etadi. Romandagi paralel syujetlar bir-biriga mantiqan ulanib, insoniyatning umumiy fojeasiga ishora qiladi: ya'ni ezgulikning so'nishi va Qiyomat manzaralari avvalo insonning o'zida, uning xatti-harakatlari va ichki dunyosida boshlanadi. Natijada, "Qiyomat" romanidagi zamon va makon almashinuvi, ruhiy-axloqiy muammolarning ko'p qatlamli ifodasi asarning g'oyaviy mazmunini

chuqurlashtirib, uni nafaqat qirg'iz adabiyotining, balki jahon adabiyotining ham muhim badiiy-falsafiy yodgorligiga aylantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ch.Aytmatov. Qiyomat. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015;
2. A.Rashidov. Chingiz Aytmatov olami. – T.: “O‘qituvchi” HMIU, 2011
3. Нодира Афоқова. Ботиндаги илоҳий ҳакам. Озод Ватан саодати. Т.: “Адиб”, 2013. –Б. 287
4. Fayzullayev O. Yozuvchining ilmiy fantaziyasi // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2005-yil, iyun.